



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 60 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	

INGLIZ VA RUS LEKSIKOGRAFIYASIDA O'ZBEK MILLIY TAOM NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Bobojonova Zarina Rashidovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek milliy taom nomlarining ingliz va rus leksikografik manbalarida aks etishi lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy taom nomlari lingvokulturologik realiyalar sifatida qaralib, ularning tarjimadagi ekvivalentlari, semantik invariantlari hamda madaniy-ma'naviy konnotatsiyalari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Natijalarga ko'ra, rus tilidagi lug'atlarga milliy taomlar ko'proq tarixiy-madaniy aloqalar tufayli tabiiy shaklda kirib kelgan bo'lsa, ingliz tilida ular ekzotik birlik sifatida tasviri, izohli yoki transkripsion shaklda beriladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologik realiyalar, milliy taom nomlari, leksik-semantik invariantlar, rus va ingliz leksikografiyasi, madaniy transfer, tarjimada nominativ strategiyalar.

Abstract: This article provides a linguistic analysis of how Uzbek national dish names are represented in English and Russian lexicographic sources. The study treats national dish names as culture-bound realia and examines their equivalents, semantic invariants, and cultural connotations in translation. The findings indicate that Uzbek dish names have been more naturally integrated into Russian lexicography due to historical and cultural ties, whereas in English they are perceived as exotic units, expressed through descriptive explanations, transcription, or adaptation.

Key words: culture-specific realia, national dish names, lexical-semantic invariants, Russian and English lexicography, cultural transfer, nominative translation strategies.

Аннотация: В данной статье проводится лингвистический анализ отражения названий узбекских национальных блюд в английских и русских лексикографических источниках. Национальные блюда рассматриваются как лингвокультурологические реалии, при этом изучаются их переводческие эквиваленты, семантические инварианты и культурно-духовные коннотации. Результаты исследования показывают, что в русскую лексикографию названия узбекских блюд вошли более естественным образом благодаря историко-культурным контактам, тогда как в английской традиции они воспринимаются как экзотические единицы и передаются посредством описательных объяснений, транскрипции или адаптации.

Ключевые слова: лингвокультурологические реалии, названия национальных блюд, лексико-семантические инварианты, русская и английская лексикография, культурный трансфер, номинативные стратегии перевода.

KIRISH

O'zbek milliy taomlari xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va madaniyatini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik birliklardir. Ularning ingliz va rus leksikografiyasida ifodalanishi nafaqat tarjimashunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega. Leksikografik manbalarda taom nomlarining aks etishi xalqaro kommunikatsiyada milliy identifikatsiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy taomlar faqatgina oziq-ovqat mahsulotlari yoki ovqatlanish madaniyati bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, qadriyatlari, an'analari, ijtimoiy munosabatlari va urf-odatlarini ham o'zida mujassam etadi. Shu bois, milliy taom nomlarini lingvistik tahlil qilish ularni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbek xalqining milliy taomlari – palov, somsa, chuchvara, lag'mon, shashlik kabi nomlar xalqaro miqyosda ham keng tanilgan. Ushbu taom nomlari boshqa xalqlar lug'atlariga kirib borishi jarayonida lingvistik o'zgarishlarga uchraydi, ya'ni fonetik, semantik va madaniy transformatsiyalar yuz beradi. Tarjimada ularning mazmuni va milliy xususiyatlarini to'liq yetkazish muammosi paydo bo'ladi. Chunki bunday realiyalar ekvivalentlari ko'pincha boshqa tillarda mavjud emas yoki ular boshqa madaniyatga xos birliklar bilan qisman qiyoslanadi.

Leksikografiya sohasida milliy taom nomlarini ifodalashda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Masalan, rus leksikografiyasida o'zbek taomlari asrlar davomida shakllangan tarixiy-madaniy aloqalar tufayli tabiiy tarzda



qabul qilingan. Shuning uchun ular ko'pincha nativlashgan holda lug'atlarga kiritilgan: *плов, самса, лагман, шашлык*. Ingliz leksikografiyasida esa o'zbek taomlari ko'proq ekzotik birlik sifatida qaralib, transkripsiya (*samsa, lagman, plov*) yoki tavsifiy tarjima ("a type of meat pastry", "a noodle dish", "rice cooked with meat and vegetables") orqali beriladi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy taom nomlarining ingliz va rus leksikografiyasidagi ifodalanishi qiyosiy tahlil qilish uchun muhim ilmiy ob'ekt hisoblanadi. Mazkur tadqiqot doirasida quyidagi savollar markaziy o'rin egallaydi:

1. O'zbek milliy taom nomlari ingliz va rus leksikografiyasida qanday tarzda ifodalanadi?
2. Ularni tarjima qilishda qanday leksik-semantik strategiyalar qo'llaniladi?
3. Milliy taom nomlarining madaniy konnotatsiyasi lug'atlarga qay darajada singdirilgan?
4. Rus va ingliz leksikografiyasi o'rtasidagi farqlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan qanday izohlanadi?

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarjimada milliy realialarni ifodalashda uch asosiy strategiya qo'llaniladi:

1. Transkripsiya va transliteratsiya (*lagman* → *lagman*, *somsa* → *samsa*),
2. Analogiya (*chuchvara* → *dumplings*, *shashlik* → *kebab*),
3. Tavsifiy tarjima (*palov* → "rice cooked with meat, carrots and spices").

Mazkur maqola ana shu strategiyalarni tahlil qilish, ularning madaniy ahamiyatini ko'rsatish hamda ingliz va rus leksikografiyasidagi taqqoslovchi natijalarni ilmiy asosda yoritishni maqsad qilib qo'yadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy taom nomlarini o'rganish masalasi lingvokulturologiya, semasiologiya va tarjimashunoslikda alohida ilmiy e'tibor qaratilgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Bunday birliklar nafaqat tildagi nominativ funksiyani bajaradi, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasini, dunyoqarashini va mentalitetini ifodalaydi. Shu bois, milliy taom nomlari lingvokulturologik realiyalar qatoriga kiradi va ularning lug'atlardagi ifodalanishi madaniyatlararo muloqot uchun muhim ahamiyatga ega.

Leksikografik manbalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek milliy taom nomlari rus va ingliz tillariga turlicha usullar orqali kiritilgan. Rus leksikografiyasida ko'plab o'zbek taomlari tarixiy-madaniy yaqinlik tufayli nativlashgan holda mavjud.

Tarixiy-madaniy yaqinlik tushunchasi

Tarixiy aloqa. O'zbekiston va Rossiya xalqlari uzoq vaqt davomida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqada bo'lib kelgan. XIX–XX asrlarda O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan. Shu sababli o'zbeklarning milliy taomlari ruslar uchun "begona" emas, balki kundalik hayotda tanish bo'lgan ovqatlarga aylangan.

Madaniy almashinuv. Sovet davrida ko'p millatli turmush tarzida turli xalqlarning milliy taomlari umumiy oshxona madaniyatiga kirib bordi. Masalan, *plov, lagman, samsa, shashlik* nafaqat o'zbeklar orasida, balki butun Sovet hududida mashhur bo'ldi.

Leksikografik aks etish. Shuning uchun rus tilidagi izohli va ensiklopedik lug'atlarda bu so'zlar oddiy birlik sifatida qayd etilgan. Ular alohida izoh talab qilmaydi, chunki rus tilida so'zlovchilar ushbu taomlarni yaxshi bilishadi. Masalan:

- *Плов* – "блюдо из риса с мясом и морковью" (o'zbek palovi nazarda tutiladi),
- *Самса* – "пирожок из теста с мясной или другой начинкой",
- *Лагман* – "суп или второе блюдо из лапши с мясом и овощами".

Demak, tarixiy-madaniy yaqinlik deganda o'zbek va rus xalqlarining uzoq davr davomida bir hududda yashaganligi, bir-birining oshxonasi va turmush tarzidan ta'sirlanganligi, natijada o'zbek milliy taomlari rus tilida "o'zlashib ketgan so'zlar"ga aylanganligi tushuniladi.

Masalan, *плов, самса, лагман, шашлык* kabi nomlar allaqachon umumiy rus leksikasiga kirib, turli izohli va ensiklopedik lug'atlarda mustahkam o'rin olgan. Bu birliklar qo'shimcha izoh talab qilmaydi, chunki ular rus tilida semantik jihatdan shakllangan birliklar sifatida qabul qilinadi.

Ingliz leksikografiyasi

Ingliz leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlari ekzotik birlik sifatida qaraladi. Ularning aksariyati *Oxford English Dictionary*, *Collins English Dictionary* yoki madaniyatga oid ensiklopediyalarda transkripsiya (*samsa*, *lagman*, *plov*) yoki tavsifiy izoh (*"a traditional Uzbek rice dish cooked with meat and vegetables"*) orqali kiritilgan. Bu holat ingliz tilida milliy taomlarning semantik ekvivalentlari to'liq mavjud emasligini ko'rsatadi.

Tilshunoslikda ekzotik birlik muayyan tilning madaniy kontekstida begona, odatiy bo'lmagan realiyani ifodalovchi so'zdir. O'zbek milliy taomlari ingliz madaniy kontekstida "oddiy tushunchalar" emas, balki "madaniy ekzotika" sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, ingliz tilidagi lug'atlarda ular maxsus izoh, tavsif yoki sharh bilan keltiriladi. Masalan:

- *Plov (pilaf, plov)* – "a traditional Central Asian rice dish cooked with meat, carrots, and spices, especially popular in Uzbek cuisine",
- *Samsa (samosa, samsa)* – "a baked pastry filled with meat, onions, or vegetables, typical of Uzbek cuisine",
- *Lagman* – "a noodle dish with meat and vegetables, considered a staple of Central Asian cuisine".

Bu ta'riflardan ko'rinadiki, so'zning madaniy "begonaligi" sababli ingliz tilidagi lug'atlar uni tushunarli qilish uchun qo'shimcha kontekstual izoh berishga majbur.

Semasiologik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan

Semasiologik tahlil nuqtayi nazaridan milliy taom nomlari madaniy konnotatsiyaga ega semantik birliklar sifatida izohlanadi. Masalan, *palov* nafaqat "go'shtli guruch ovqati", balki o'zbek xalqining "to'y va marosim taomi" sifatida ham madaniy vazifa bajaradi. Ingliz yoki rus lug'atlarida bu qo'shimcha konnotativ qatlamlar ko'pincha aks ettirilmaydi.

Ingliz leksikografiyasida bunday so'zlar *culture-bound terms* (Peter Newmark, 1988) sifatida qaraladi. Ular tarjimada madaniy transfer muammosini yuzaga keltiradi, chunki nafaqat til, balki madaniy konnotatsiyani ham o'tkazish lozim. Shu sababli ingliz tilidagi lug'atlar o'zbek taomlarini etnografik izohlar bilan tasvirlaydi va ularning ekzotik maqomini ko'rsatadi.

Tarjimashunoslikda bunday realiyalarni ifodalashda quyidagi strategiyalar qo'llaniladi:

1. Transkripsiya va transliteratsiya (*somsa* → *samsa*),
2. Analogiya asosida tarjima (*chuchvara* → *dumplings*, *shashlik* → *kebab*),
3. Tavsifiy tarjima (*palov* → *"rice cooked with meat, carrots and spices"*).

Xulosa sifatida

Leksikografik manbalarda o'zbek milliy taom nomlarining aks etishi faqat lingvistik emas, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik jihatlarida ham tahlilni talab etadi. Bu masala madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta'minlash, milliy qadriyatlarni boshqa xalqlarga yetkazish va ularni xalqaro miqyosda tanitishda alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi o'zbek milliy taom nomlarining ingliz va rus leksikografik manbalardagi ifodalanishini o'rganishga qaratildi. Ma'lumotlar asosan izohli va tarjima lug'atlari, shuningdek, elektron leksikografik bazalardan yig'ildi. Olingan birliklar qiyosiy-lingvistik tahlil asosida fonetik, semantik va madaniy jihatdan solishtirilib, tarjimada qo'llangan strategiyalar aniqlanib, ularning lingvokulturologik xususiyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek milliy taomlari ingliz va rus leksikografiyasida turlicha aks etadi. Quyidagi jadval bunga yaqqol misol bo'ladi:

O'zbekcha	Ruscha leksikografiyada	Inglizcha leksikografiyada	Tarjima strategiyasi
Palov	плов (nativlashgan)	pilaf / plov	Transkripsiya + adaptatsiya
Somsa	самса	samsa / meat pastry	Transkripsiya + tavsifiy tarjima
Chuchvara	чучвара / пельмени	chuchvara / dumplings	Analogiya + izoh
Lag'mon	Лагман	lagman / noodle dish	Transkripsiya + tavsif
Shashlik	Шашлык	shashlik / kebab	Ekvivalent + adaptatsiya



Natijalardan ko'rinadiki, rus leksikografiyasida o'zbek taomlari ko'pincha tabiiylashtirilgan holda mavjud bo'lsa, ingliz tilida ular asosan ekzotik birlik sifatida tushuntirish va qo'shimcha izoh orqali beriladi.

Milliy taom nomlarini tarjimada berishda ikki asosiy tendensiya kuzatiladi: rus leksikografiyasida tarixiy-madaniy aloqalar kuchli bo'lgani sababli ko'plab o'zbek taomlari tabiiy ravishda o'zlashgan (*плов, самса, лагман*), ingliz leksikografiyasida esa taomlar ko'proq ekzotik birlik sifatida qaralib, transkripsiya va tavsifiy tarjima orqali ifodalanadi (*samsa – “a type of meat pastry”, lagman – “a noodle dish”*). Bu esa lingvokulturologik realiyalarning qabul qilinish darajasi tarjima jarayonida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqaga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbek milliy taom nomlarining ingliz va rus leksikografiyasida ifodalanishi turlicha lingvistik strategiyalarni talab qiladi. Rus tili uchun nativlashgan shakl ustuvor bo'lsa, ingliz tilida transkripsiya va tavsifiy tarjima muhim rol o'ynaydi. Bu esa tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik kategoriyalarining turlicha darajada namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Maqola natijalari lingvokulturologik tadqiqotlar, tarjimashunoslik va xalqaro madaniy kommunikatsiya uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rus va ingliz leksikografiyasida milliy taomlarning qabul qilinishi turlicha lingvokulturologik xususiyatlarga ega.

Birinchidan, rus leksikografiyasida o'zbek taomlari tarixiy, geografik va madaniy yaqinlik tufayli ko'proq “o'zlashgan birlik” sifatida qaraladi. *Plov, somsa, lag'mon, chuchvara* kabi atamalar rus tilida o'zlashib ketgan va ko'pincha qo'shimcha sharhlarsiz yoki minimal izoh bilan keltiriladi. Bu jarayon lingvokulturologik integratsiyaning tabiiy natijasi sifatida izohlanadi.

Ikkinchidan, ingliz leksikografiyasida esa o'zbek taom nomlari ekzotik birliklar sifatida talqin qilinadi. Chunki ingliz tilida bu birliklar o'quvchiga begona madaniyat elementi sifatida ko'rinadi va ularni to'liq anglash uchun etnografik hamda tavsifiy sharhlar talab etiladi. Shu bois, ingliz lug'atlarida *plov* – “a traditional Uzbek rice dish cooked with meat and spices”, *samsa* – “a baked pastry filled with meat and onions” kabi kontekstual izohlar bilan beriladi.

Uchinchidan, o'zbek milliy taom nomlarining tarjimasida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va madaniy transfer muammolari yuzaga keladi. Bunday birliklar tarjimasida transkripsiya, tavsifiy tarjima, moslashtirish va kalkalash kabi usullar qo'llanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek taom nomlari tarjimasida faqat lingvistik emas, balki lingvokulturologik fenomen sifatida ham baholanishi lozim.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot o'zbek milliy taom nomlarining rus va ingliz leksikografiyasida aks etishi orqali madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologik adaptatsiya va tarjima strategiyalarini ochib beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, rus tilida bunday birliklar ko'proq o'zlashtirilgan va tabiiylashtirilgan, ingliz tilida esa ular ekzotik va izoh talab qiladigan birliklar sifatida qolmoqda. Bu esa o'zbek milliy taom nomlarini xalqaro miqyosda tanitishda lingvokulturologik yondashuvning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkhudarov, L. S. (1975). Язык и перевод. Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya.
2. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). Непереводимое в переводе. Moskva: Vysshaya shkola.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.
4. Oxford English Dictionary. (2025). Oxford University Press. <https://www.oed.com>
5. Cambridge Dictionary. (2025). Cambridge University Press. <https://dictionary.cambridge.org>
6. Isakulova, B. X. (2025). Ta'lim sifatini oshirishda ko'p tillilik va til bilishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 47(4), 125–127. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/22655>
7. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. Golden Brain, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
8. Isakulova, B. (2024). Building leadership abilities through language learning in education. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(12), 218–225.
9. Rashidovna, B. Z., & Prasetyo, A. (2025). The representation of the names of Uzbek national dishes in works of art and their translation. Multidisciplinary Journal of Science. 2025mjstjournal.com
10. Rashidovna, B. Z. (2024). Names of dishes adapted from English, Russian, and Uzbek languages. Web of Teachers: Inderscience Research. webofjournals.com

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.